

**SUBSTANTIVATSIYA TASNIFI (LEKSIK, MORFOLOGIK,
SINTAKTIK, SEMANTIK)**

G'afforova Nigora Abdunosirovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

tayanch doktoranti

Email: nigoratohtaboyeva@gmail.com

Tel: +998882381288

Tg: @Nigopa12

Annotatsiya: Ushbu tezisda substantivatsiya hodisasining lingistik tasmifi — ya'ni leksik, morfologik, sintaktik va semantik jihatlari o'rganiladi. O'zbek, ingliz va rus tillaridagi substantivatsiya jarayoni o'zaro solishtirilib, har bir til doirasida bu jarayonning qanday til vositalari orqali amalga oshishi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalarida substantivatsiyaning umumiyligi va farqliliklari aniqlanib, lingistik tizimlarda bu hodisaning o'rni va roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: substantivatsiya, leksik konversiya, morfologik o'zgarish, sintaktik holat, semantik qayta tashkil, tilshunoslik, tipologik taqqoslash

Abstract: This thesis explores the linguistic classification of substantivization, analyzing it from lexical, morphological, syntactic, and semantic perspectives. The study compares how substantivization manifests in Uzbek, English, and Russian languages, examining the structural and functional mechanisms involved. The analysis reveals both universal and language-specific features of substantivization and contributes to understanding its role in grammaticalization and language structure.

Keywords: substantivization, lexical conversion, morphological shift, syntactic transformation, semantic restructuring, comparative linguistics, typology

Аннотация: В данной статье рассматривается классификация субстантивации с лексической, морфологической, синтаксической и семантической точек зрения. Анализируется, как проявляется процесс

субстантивации в узбекском, английском и русском языках. Выявлены общие черты и различия в способах реализации субстантивации, а также подчеркивается её роль в грамматической системе каждого языка.

Ключевые слова: субстантивация, лексическая конверсия, морфологические изменения, синтаксическая трансформация, семантическое переосмысление, сравнительное языкознание, типология

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy tillar ilmiy asoslarini chuqur o'rganish va lingvistik tadqiqotlar orqali rivojlantirish vazifalariga muvofiq¹, morfologik hodisalarni, xususan, substantivatsiya jarayonini har tomonlama tahlil qilish, xorijiy tillar va tilimizning ichki imkoniyatlarini ochib berish hamda ularni taqqoslab, zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida tadqiq etish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. O'zbek tilshunosligida ham so'z yasalishi, ayniqsa substantivatsiya hodisasi til birliklarining o'zaro munosabati, nutqdagi moslashuvchanligi va yangi ma'no qatlamlarining shakllanishi nuqtai nazaridan muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Fe'l va sifatlarning otga aylanish jarayoni o'zbek tilida an'anaviy va zamonaviy uslublarda turlicha ifoda etiladi. Bu holat o'zbek tilining boy morfologik tizimi va uning ifoda imkoniyatlarini chuqur o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Asosiy qism

Substantivatsiya hodisasi tilshunoslikda turli jihatlardan tasniflanadi. Bu hodisa so'z turkumlarining o'zaro munosabati va transformatsiyasi jarayonida muhim o'rin tutadi. Substantivatsiyaning asosiy tasnifiy turlari quyidagilardir:

Leksik substantivatsiya

Leksik substantivatsiya jarayonida so'z butunlay ot so'z turkumiga o'tadi va lug'aviy ma'nosini o'zgaradi. Bu jarayonda so'z nafaqat grammatik xususiyatlarini, balki semantik jihatdan ham o'zgarishga uchraydi. Bunda so'z o'zining dastlabki ma'nosidan uzoqlashib, yangi leksik ma'no kasb etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-312-sonli qarori, 2021-yil, 19-may.

Masalan, "tuyoq" so'zi hayvonga aloqador a'zo hisoblanadi: "*Loyi ko'pirib yotgan yo'lida ot taqalari, mol tuyoqlaridan hosil bo'lgan chuqurchalarni limmalim to'ldirgan sariq zardoblar jimirlab, yoni-veridan sirqib yotardi*" (P.Tursun).² Ammo mazkur so'z insonga nisbatan qo'llanilganda salbiy ma'no ilk tushuncha hisoblanadi.

Morfologik substantivatsiya

Morfologik substantivatsiya jarayonida so'z ot so'z turkumiga xos grammatik kategoriyalarni (son, kelishik, egalik) qabul qiladi. Bu jarayonda so'z o'zining dastlabki morfologik xususiyatlarini yo'qotib, ot so'z turkumiga xos morfologik belgilarni oladi.

Sintaktik substantivatsiya

Sintaktik substantivatsiya jarayonida so'z gapda ot bajaradigan sintaktik vazifalarni (ega, to'ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi) bajaradi. Bunda so'z kontekst ichida ot kabi qo'llaniladi va gap tarkibida ot so'z turkumiga xos sintaktik funksiyalarni bajaradi.

Semantik substantivatsiya

Semantik substantivatsiya jarayonida so'z ot so'z turkumiga xos ma'no ifodalaydi, ya'ni predmetlik ma'nosini bildiradi. Bu jarayonda so'z o'zining dastlabki semantik xususiyatlarini saqlab qolgan holda, kontekst ichida predmet ma'nosini ham ifodalay boshlaydi.³

Xulosa

Ushbu tezisning asosiy maqsadi substantivatsiyaning nazariy asoslari keng qamrovda tahlil qilish, uni xalqaro tilshunoslik sohasida mavjud bo'lgan turli guruhlar va kategoriyalarga ajratish hamda uning tillararo ta'sir va munosabatlarini aniqlashdan iborat edi. Substantivatsiya jarayonining tillararo o'zaro ta'sirining mexanizmlari va xususiyatlari ham ko'rib chiqildi, bu esa tilshunoslikda yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishga hamda til o'rganish va o'qitishda

² Shamsiddinov H. O'zbek tilida so'zlarning funksional-semantik sinonimlari. Filol.fan.dokt...dis.-Toshkent,1999, 187-b.

³ https://tiu-edu.uz/media/books/2024/05/27/Matn_lingvistikasi_S.Muhamedova_M.Saparniyozova.pdf p-140

samarali vositalarni yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashurova D.U., Galieva M.R. Stylistics of Literary Text. – Tashkent: Turon-Iqbol, 2016. – 272 b.
2. J.R.Ware —Passing English of the Victorian era: a dictionary of heterodox English, slang and phrase[], 1909.
3. Studies [online]. 2024, vol. 6, no. 1 [cit. 2024-06- 30].
<http://www.skase.sk/Volumes/JLCS12/01.pdf>. ISSN 2644-5506-17b
4. Komilova G. Linvokulturologiya yangi fan sifatida // "Экономика и социум" №12 (91) 2021.